



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	

OILA A'ZOLARI O'RTASIDAGI O'ZARO TUSHUNISHNING SHAXS KOGNITIV RIVOJLANISHIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti pedagogika,
psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillari tahlil qilinadi. Oilaviy munosabatlarda mavjud bo'lgan emotsional qo'llab-quvvatlash, samarali muloqot, o'zaro hurmat va ishonch muhitining shaxsning tafakkuri, idrok jarayonlari, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda moslashuvchan fikrlashiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda oilaviy muhitning kognitiv jarayonlar shakllanishidagi o'rni, shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va refleksiv qobiliyatlarining rivojlanish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, oila ichidagi konstruktiv munosabatlar shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va intellektual faolligini rivojlantirishning muhim psixologik sharti sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oila, o'zaro tushunish, oilaviy munosabatlar, kognitiv rivojlanish, tafakkur, idrok, shaxs rivoji, psixologik muhit, kommunikatsiya, refleksiya.

Abstract: This article examines the psychological features of the influence of mutual understanding among family members on individual cognitive development. The study analyzes the role of emotional support, effective communication, trust, and mutual respect within family relationships as essential factors contributing to the development of thinking processes, perception, problem-solving abilities, and cognitive flexibility. The paper highlights the importance of the family environment in shaping cognitive processes, acquiring social experience, and developing reflective abilities. It is emphasized that constructive family relationships create favorable psychological conditions for the formation of independent thinking, intellectual activity, and creative potential of an individual.

Key words: family, mutual understanding, family relationships, cognitive development, thinking, perception, personality development, psychological environment, communication, reflection.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности влияния взаимопонимания между членами семьи на когнитивное развитие личности. Анализируется роль эмоциональной поддержки, эффективной коммуникации, доверия и взаимного уважения в семейных отношениях как важных факторов формирования мыслительных процессов, восприятия, способности решать проблемные ситуации и когнитивной гибкости личности. В работе раскрывается значение семейной среды в развитии познавательных процессов, усвоении социального опыта и формировании рефлексивных способностей человека. Особое внимание уделяется тому, что конструктивные семейные отношения создают благоприятные психологические условия для развития самостоятельного мышления, интеллектуальной активности и творческого потенциала личности.

Ключевые слова: семья, взаимопонимание, семейные отношения, когнитивное развитие, мышление, восприятие, развитие личности, психологический климат, коммуникация, рефлексия.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlash qobiliyati va murakkab hayotiy vaziyatlarga moslasha olish imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shaxsning kognitiv rivojlanishi faqatgina ta'lim jarayoni yoki individual tajriba bilan emas, balki uning dastlabki ijtimoiy muhiti bo'lgan oila tizimidagi munosabatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Oila insonning dastlabki muloqot tajribasi, hissiy munosabatlar shakllanishi va atrof-muhitni anglash jarayonlari yuzaga keladigan asosiy psixologik makon hisoblanadi.

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish shaxsning dunyoni idrok etishi, fikrlash jarayonlari va ijtimoiy vaziyatlarga munosabat bildirish usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oilada mavjud bo'lgan ijobiy psixologik muhit, ochiq muloqot va o'zaro qo'llab-quvvatlash shaxsda bilishga bo'lgan qiziqish, tahliliy fikrlash hamda yangi tajribalarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Aksincha, oilaviy munosabatlardagi doimiy nizolar, hissiy beqa-



rorlik va tushunmovchiliklar shaxsning kognitiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning fikrlash jarayonlarida qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kognitiv rivojlanish tushunchasi shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish va undan amaliy faoliyatda foydalanish qobiliyatlarining takomillashuvini anglatadi. Mazkur jarayonning shakllanishida oilaning tarbiyaviy uslubi, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning sifati, oiladagi kommunikativ tajriba hamda emotsional barqarorlik muhim psixologik omillar sifatida qaraladi. Chunki bola va oila a'zolari o'rtasidagi muloqot jarayonida nafaqat ijtimoiy ko'nikmalar, balki muammolarni hal qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish va mustaqil qaror qabul qilish kabi kognitiv kompetensiyalar ham rivojlanadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda shaxs rivojlanishini tushuntirishda tizimli yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, oila alohida individlarning oddiy yig'indisi emas, balki o'zaro ta'sir va munosabatlarga asoslangan yaxlit psixologik tizim sifatida qaraladi. Oiladagi har bir a'zoning hissiy holati, muloqot uslubi va xulq-atvori boshqa a'zolarining psixologik rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Shu sababli oilaviy munosabatlarning sifati shaxsning nafaqat emotsional, balki kognitiv rivojlanish jarayonlarini ham belgilovchi muhim omillardan biridir.

O'zaro tushunish oilaviy munosabatlarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u oila a'zolarining bir-birining ehtiyojlari, fikrlari va hissiy kechinmalarini anglash qobiliyatini ifodalaydi. Bunday munosabat shaxsda empatiya, refleksiv fikrlash, ijtimoiy idrok va kognitiv moslashuvchanlik kabi murakkab psixologik sifatning shakllanishiga yordam beradi. Ayniqsa, oilada bolaning fikri tinglanishi, uning savollariga e'tibor bilan javob berilishi va mustaqil fikrlashiga imkon yaratilishi uning intellektual rivojlanish sur'atlarini oshiradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi, avlodlar o'rtasidagi muloqot shakllarining o'zgarishi va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi sharoitida oila muhitining shaxs kognitiv rivojlanishidagi o'rnini chuqur o'rganish zarurati ortmoqda. Oilada shakllanadigan muloqot madaniyati, o'zaro ishonch va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash shaxsning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirini o'rganish zamonaviy psixologiya fanida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, oilaviy munosabatlarning shaxs tafakkuri, bilish jarayonlari va intellektual faolligini shakllantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila muhitining shaxs rivojlanishiga ta'siri psixologiya fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy psixologik qarashlarda oila insonning dastlabki ijtimoiy tajribasi shakllanadigan, shaxsiy sifatlar, kognitiv qobiliyatlar va xulq-atvor me'yorlari rivojlanadigan asosiy muhit sifatida baholanadi. Bu borada J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasida ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional yaqinlik hamda xavfsiz bog'lanish bolaning keyingi psixologik rivojlanishi uchun muhim asos sifatida talqin qilinadi. Oiladagi munosabatlarning mazmuni va sifati shaxsning nafaqat emotsional barqarorligi, balki uning tafakkur jarayonlari, bilish faolligi va intellektual rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

Psixologik nazariyalarda shaxsning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Xususan, L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida inson tafakkuri va bilish jarayonlarining ijtimoiy muhit hamda muloqot ta'sirida shakllanishiga alohida e'tibor qaratiladi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida esa bolaning atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabati kognitiv tuzilmalarning bosqichma-bosqich rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi. Oila ushbu o'zaro ta'sirning eng dastlabki va eng ta'sirchan shakli hisoblanadi. Bola oilada muloqot qilish, voqelikni tushunish, muammolarni hal etish va turli vaziyatlarga moslashish tajribasini egallaydi. Shu sababli oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari shaxs kognitiv rivojlanishining muhim determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Oilaviy tizim nazariyasi doirasida oila ichidagi munosabatlar o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qilinadi. Bu borada M. Bowen oilani o'zaro bog'langan yaxlit emotsional tizim sifatida izohlaydi va oila a'zolaridan birining psixologik holati boshqa a'zolarining hissiy holati hamda xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasida oila shaxs rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mikrotizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, oiladagi har bir munosabat turi shaxsning psixologik holatiga va rivojlanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolari o'rtasidagi ochiq muloqot, hissiy yaqinlik va o'zaro anglashuv shaxsda ijobiy kognitiv strategiyalarni shakllantiradi. Bunday muhitda inson o'z fikrlarini erkin ifodalash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilar oilaviy kommunikatsiyaning shaxs tafakkuri rivojidadagi roliga alohida e'tibor qaratadilar. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulq-atvori va muayyan ko'nikmalari kuzatish,



taqlid qilish hamda ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. Shu jihatdan, oiladagi muloqot jarayonida fikr almashish, savol-javoblar, muammolarni birgalikda muhokama qilish kabi faoliyat shakllari shaxsning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, ota-ona tomonidan bolaning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, uning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratish kognitiv mustaqillikning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, oiladagi emotsional muhit shaxsning bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. J. Bowlbyning ilmiy qarashlarida bola va unga g'amxo'rlik qiluvchi shaxs o'rtasidagi xavfsiz bog'lanish uning emotsional barqarorligi hamda atrof-muhitni faol o'rganishiga zamin yaratishi ta'kidlanadi. Psixologik xavfsizlik mavjud bo'lgan oilalarda shaxs yangi tajribalarni qabul qilishga, xatolarni tahlil qilishga va bilimlarini kengaytirishga ko'proq moyil bo'ladi. Aksincha, doimiy tanqid, qo'rquv yoki hissiy bosim hukmron bo'lgan oilaviy muhit shaxsning fikrlash faolligini cheklashi, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Refleksiv jarayonlarning shakllanishida ham oilaviy munosabatlarning o'rni katta. Refleksiya shaxsning o'z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. L.S. Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish haqidagi qarashlari nuqtayi nazaridan, yuqori psixik funksiyalarning shakllanishida shaxslararo muloqot va ijtimoiy tajriba muhim o'rin egallaydi. Oilada o'zaro tushunish va ochiq muloqot mavjud bo'lsa, shaxs boshqalarning pozitsiyasini anglash, o'z faoliyatini baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kognitiv moslashuvchanlik, ya'ni turli vaziyatlarda fikrlash usullarini o'zgartira olish qobiliyatining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham oila muhitining shaxs kamolotidagi o'rni alohida qayd etiladi. Xususan, G'.B. Shoumarovning oila psixologiyasiga oid ilmiy ishlarida oilaviy munosabatlar, oiladagi psixologik muhit, er-xotin hamda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning shaxs kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. O'zbek oilalarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, avlodlararo munosabatlar, tarbiyaviy qadriyatlar va oilaviy muloqot shakllari shaxsning ijtimoiylashuvi hamda psixologik rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, oilada shakllangan qadriyatlar tizimi, kattalarning shaxsiy namunasi va farzand bilan olib boriladigan muloqot uslubi uning dunyoqarashi va bilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, L.S. Vigotskiy, J. Piaget, A. Bandura, M. Bowen, U. Bronfenbrenner, J. Bowlby va G'.B. Shoumarov kabi olimlarning tadqiqotlarida oila, ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar va shaxs rivojlanishining turli jihatlarini yoritilgan. Shunga qaramay, aynan oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning kognitiv rivojlanish jarayonlariga ta'sir mexanizmlarini kompleks tarzda o'rganish hali ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, o'zaro tushunishning tafakkur moslashuvchanligi, refleksiv qobiliyatlar va intellektual faollik bilan bog'liqligini aniqlash zamonaviy psixologik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlar tahlili asosida aytish mumkinki, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish shaxsning kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik resurslardan biri hisoblanadi. Oiladagi sog'lom psixologik muhit, samarali kommunikatsiya va hissiy qo'llab-quvvatlash shaxsning bilish jarayonlarini faollashtirib, uning intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari hamda kognitiv jarayonlarning shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Tadqiqot metodologik jihatdan shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik yondashuvlariga asoslandi. Xususan, L.S. Vigotskiyning rivojlanishning ijtimoiy tabiati haqidagi konsepsiyasi, J. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasi, A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi hamda oilaviy tizim yondashuvi doirasidagi ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Ushbu nazariy yondashuvlar oilaviy muhitning shaxs tafakkuri, idroki, refleksiv qobiliyatlari va moslashuvchan fikrlash jarayonlariga ta'sirini tushuntirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlarini aniqlash maqsadida empirik metodlardan foydalanildi. Jumladan, kuzatish, psixologik so'rovnoma, diagnostik metodlar, qiyosiy tahlil va matematik-statistik qayta ishlash usullari qo'llanildi. Tadqiqot ishtirokchilarining oiladagi o'zaro munosabatlarni qabul qilishi, yaqinlari bilan muloqot sifati, oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasi hamda kognitiv faoliyat xususiyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda jami 72 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar turli yosh guruhlariga mansub bo'lib, ular orasida oliy ta'lim muassasalari talabalari va yosh oilalar vakillari tanlab olindi. Tanlanmaning shakllantirilishida asosiy mezon sifatida oilaviy munosabatlar tajribasi, ijtimoiy faollik va tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish tamoyillari hisobga olindi.



Tadqiqot jarayonida quyidagi psixodiagnostik vositalardan foydalanildi:

1. **“Oilaviy munosabatlarni baholash” metodikasi** - oila a'zolari o'rtasidagi hissiy yaqinlik, o'zaro ishonch va muloqot darajasini aniqlash uchun;
2. **Kognitiv moslashuvchanlikni baholash so'rovnomasi** - shaxsning yangi vaziyatlarga moslashishi, fikrlash usullarini o'zgartira olish qobiliyatini aniqlash uchun;
3. **Refleksivlik darajasini aniqlash metodikasi** - shaxsning o'z faoliyati, fikrlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyatini o'rganish uchun.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda SPSS dasturiy paketi yordamida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi. Natijalarning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanildi. Bu orqali oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish ko'rsatkichi bilan shaxsning kognitiv rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: **Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish mezonlari**

Tadqiqot yo'nalishi	Qo'llanilgan metodika	Respondentlar soni	Statistik usul
Oiladagi o'zaro tushunish darajasi	Oilaviy munosabatlarni baholash metodikasi	72 nafar	Deskriptiv statistika
Kognitiv rivojlanish xususiyatlari	Kognitiv moslashuvchanlik so'rovnomasi	72 nafar	Korrelyatsion tahlil
Refleksiv fikrlash darajasi	Refleksivlikni aniqlash metodikasi	72 nafar	Pearson korrelyatsiyasi
Oilaviy muhit va kognitiv jarayonlar bog'liqligi	Kompleks tahlil	72 nafar	SPSS dasturi asosida statistik qayta ishlash

Olingan ma'lumotlar asosida oiladagi o'zaro tushunish darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda kognitiv faoliyat, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati va refleksiv fikrlash ko'rsatkichlari yuqoriroq namoyon bo'lishi taxmin qilindi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarning sifati shaxsning fikrlash jarayonlari va ijtimoiy moslashuvchanligini belgilovchi muhim psixologik omil sifatida baholandi.

Tadqiqot metodologiyasi oilaviy munosabatlarning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy-empirik jihatdan ham o'rganish imkonini berdi. Mazkur yondashuv orqali oiladagi o'zaro tushunish, kommunikativ faollik va psixologik qo'llab-quvvatlashning shaxs intellektual rivojlanishidagi o'rnini aniqlashga xizmat qilindi.

Tadqiqot jarayonida oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish darajasi hamda uning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar oiladagi psixologik muhit, muloqot sifati va hissiy qo'llab-quvvatlash darajasi shaxsning bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot ishtirokchilarining javoblari tahlil qilinganda, oilada o'zaro hurmat va tushunish muhiti shakllangan shaxslarning fikrlash faolligi, yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyati va muammolarni hal etish strategiyalari yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlandi.

SPSS dasturi yordamida amalga oshirilgan statistik tahlil natijalari oilaviy munosabatlarning ijobiy ko'rsatkichlari bilan kognitiv rivojlanish o'rtasida ma'lum darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, oiladagi o'zaro tushunish, ochiq muloqot va hissiy yaqinlik darajasi oshgan sari shaxsning refleksiv fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va kognitiv moslashuvchanlik ko'rsatkichlari ham yuqorilashi kuzatildi (2-jadval).

2-jadval: **Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish va kognitiv rivojlanish ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Past daraja (%)	O'rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)
Oilaviy o'zaro tushunish darajasi	18,1	45,8	36,1
Kognitiv moslashuvchanlik	20,8	43,1	36,1
Refleksiv fikrlash darajasi	22,2	41,7	36,1
Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati	19,4	47,2	33,4

Jadval natijalaridan ko'rinadiki, respondentlarning asosiy qismi oilaviy munosabatlarda o'zaro tushunish va qo'llab-quvvatlashning o'rta hamda yuqori darajasiga ega ekanligini bildirgan. Bu holat oiladagi ijobiy kommunikativ tajriba shaxsning kognitiv jarayonlarini faollashtiruvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida oila ichidagi o'zaro tushunish va kognitiv rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ham aniqlandi (3-jadval).



3-jadval: Oilaviy o'zaro tushunish va kognitiv ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik (Pearson korrelyatsiyasi)

Ko'rsatkichlar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Ahamiyatlilik darajasi (p)
O'zaro tushunish – Kognitiv moslashuvchanlik	0,62	$p < 0,01$
O'zaro tushunish – Refleksiv fikrlash	0,58	$p < 0,01$
O'zaro tushunish – Muammoli vaziyatlarni hal qilish	0,55	$p < 0,01$

Olingan natijalar oiladagi o'zaro tushunish va shaxsning kognitiv rivojlanishi o'rtasida ijobiy statistik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, kognitiv moslashuvchanlik bilan o'zaro tushunish o'rtasidagi bog'liqlik yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. Bu esa oilada turli fikrlarni qabul qilish, vaziyatlarga moslashish va muammolarni konstruktiv hal qilish imkoniyatlari kengayishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy munosabatlarda hissiy xavfsizlik mavjud bo'lgan shaxslar atrof-dagi voqealarni chuqurroq tahlil qilishga, yangi bilimlarni faol o'zlashtirishga va o'z xatti-harakatlarini baholashga ko'proq moyil bo'ladi. Bunday oilaviy muhit shaxsda ichki motivatsiyani kuchaytirib, bilishga bo'lgan qiziqishning rivojlanishiga yordam beradi.

Muhokama jarayonida oiladagi kommunikativ uslubning shaxs tafakkuriga ta'siri alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Agar oila a'zolari bir-birining fikrlarini tinglashga, turli nuqtayi nazarlarni qabul qilishga va muammolarni hamkorlikda hal etishga intilsalar, bunday sharoitda shaxsning analitik fikrlashi va ijodiy yondashuvi rivojlanadi. Aksincha, doimiy ziddiyatli munosabatlar mavjud oilalarda shaxsning fikrlash faolligi pasayishi va qaror qabul qilish jarayonlarida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Olingan natijalar oilaviy munosabatlarning shaxs kognitiv rivojlanishidagi rolini tasdiqlaydi. Oila nafaqat biologik va ijtimoiy birlik, balki shaxsning intellektual imkoniyatlari shakllanadigan psixologik rivojlanish muhiti sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli oilada sog'lom muloqot, o'zaro hurmat va tushunish tamoyillarini rivojlantirish shaxsning kognitiv salohiyatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish shaxsning kognitiv rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Oiladagi munosabatlarning mazmuni, muloqot sifati, hissiy qo'llab-quvvatlash darajasi va o'zaro hurmat muhiti shaxsning tafakkuri, idrok jarayonlari, refleksiv qobiliyatlari hamda yangi vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini belgilaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar oilada shakllangan ijobiy psixologik muhit shaxsning intellektual faolligini oshirishini ko'rsatdi. O'zaro tushunishga asoslangan oilaviy munosabatlar shaxsga o'z fikrlarini erkin ifodalash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, oilada mavjud bo'lgan ochiq muloqot va hissiy yaqinlik kognitiv jarayonlarning samarali rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy o'zaro tushunish darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda refleksiv fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari yaxshi shakllangan. Bu holat oilaning shaxs rivojlanishidagi tarbiyaviy funksiyasi bilan bir qatorda, uning kognitiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi psixologik resurs sifatidagi ahamiyatini ham namoyon etadi.

Shuningdek, oiladagi kommunikativ jarayonlar shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Oila a'zolari o'rtasidagi samarali muloqot shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishiga, o'z faoliyatini tahlil qilishiga va yangi bilimlarni qabul qilish qobiliyatining takomillashishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, oila muhitida yaratilgan psixologik qulaylik shaxsning nafaqat emotsional barqarorligi, balki intellektual rivojlanishi uchun ham zarur shart hisoblanadi.

Umuman olganda, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunish shaxs kognitiv rivojlanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Oilada o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish shaxsning fikrlash faolligini oshirish, kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirish va intellektual salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarning turli shakllari, ota-ona tarbiya uslublari hamda avlodlararo muloqot xususiyatlarining shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirini yanada chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday ilmiy izlanishlar oilaviy psixologik maslahat va rivojlantiruvchi dasturlarni takomillashtirish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4559-son qarori.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 2019.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 2013.
6. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. - New York: Pearson Education, 2018.
7. Minuchin S. Families and Family Therapy. - New York: Routledge, 2018.
8. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. - Lanham: Rowman & Littlefield Publishers, 2016.
9. Olson D.H. Circumplex Model of Marital and Family Systems: Assessing Family Functioning // Journal of Family Therapy. - 2019. - Vol. 41(1). - P. 3-27.
10. Gottman J.M., Silver N. The Seven Principles for Making Marriage Work. - New York: Harmony Books, 2015.
11. Berk L.E. Development Through the Lifespan. - Boston: Pearson, 2022.
12. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. - New York: Bantam Books, 2020.
13. Левин К. Теория поля в социальных науках. - Санкт-Петербург: Речь, 2018.
14. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - Москва: Гардарики, 2017.
15. Андреева Г.М. Социальная психология. - Москва: Аспект Пресс, 2020.
16. Немов Р.С. Психология: учебник для вузов. - Москва: Юрайт, 2021.
17. Реан А.А. Психология личности. Социализация, поведение, развитие. - Санкт-Петербург: Питер, 2019.
18. Абрамова Г.С. Возрастная психология. - Москва: Академический проект, 2020.
19. Shcherbakova A.I. Family Relationships as a Factor of Personal Development // Psychology in Russia: State of the Art. - 2021. - Vol. 14(3). - P. 45-58.
20. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design - Cambridge: Harvard University Press, 2018.
21. Karimova V.M. Oilaviy psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
22. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat asoslari. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020.
23. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
24. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. - Boston: Houghton Mifflin, 2016.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.